

QARIYALARDA NAFAS OLIISH A'ZOLARINING KASALLIKLARI

ЗАБОЛЕВАНИЯ ОРГАНОВ ДЫХАНИЯ У ПОЖИЛЫХ ЛЕТ

RESPIRATORY DISEASES IN THE ELDERLY

Xakimova Muazzam Abdirahimovna

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
tehnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *maqolada nafas olish a'zolari kasalliklari va ularning kelib chiqish sabablari haqida hamda ularning sabablari va davolash usullari haqida. Qariyalarda uchraydigan nafas kasalliklari turlari va sabablari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *в статье речь идет о заболеваниях органов дыхания и их причинах, а также об их причинах и методах лечения. Приведены сведения о видах и причинах заболеваний органов дыхания у пожилых людей.*

Abstract: *The article discusses respiratory diseases and their causes, as well as their causes and treatment methods. Information is provided on the types and causes of respiratory diseases in the elderly.*

Kalit so'zlar: *nafas a'zolari, karbonat angidirit, kislorod, gipoksiya, astma, o'pka alveolalari.*

Ключевые слова: *органы дыхания, углекислота, кислород, гипоксия, астма, альвеолы легких.*

Keywords: *respiratory organs, carbonic anhydrite, oxygen, hypoxia, asthma, pulmonary alveoli.*

Bugungi kunda organizmning turli darajada shamollashlari, sintetik dori vositalarining do'zasini ortib ketishi, sog'lom yashash tarzining buzilishi, ekologik omillar va atrof – muhitning buzilishi hozirgi kunda ko'plab kasalliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Nafas a'zolarining kasalliklari ham keng tarqalgan kasalliklar turiga kiradi.

Nafas olish tizimi kislorod va karbonat angidrid almashinuvi uchun javob beradigan inson tanasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, hayotni ta'minlovchi muhim jarayondir. U atrof-muhitdan kislorod olish va hujayra nafas olishining chiqindi mahsuloti bo'lgan karbonat angidridni olib tashlash uchun birgalikda ishlaydigan organlar, to'qimalar va tuzilmalarning murakkab tarmog'idan iborat.

Nafas olish tizimi bilan bog'liq kasalliklar unchalik xavfli ko'rinmasa-da, aslida o'lim xavfi juda yuqori kasalliklar guruhiga kiradi [1].

Aslida xavfsiz kasallikning o'zi yo'q. Hozirgi paytda aholi orasida uchraydigan nafas a'zolari kasalliklarining asosiy qismini bronxial astma, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi va pnevmoniya tashkil kiladi. Masalan, dunyo statistikasi buyicha bronxial astma kasalligi aholi orasida o'rtacha 5 foiz hollarda uchraydi, bu ko'rsatgich bolalar orasida yanada ko'proq

uchrab, o'rtacha 10 foizni tashkil qiladi. Surunkali obstruktiv o'pka kasalligi dunyo bo'yicha kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarining asosiy sabablaridan biriga aylanib bormokda.

Bu o'z o'rnida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi. Infekcion kasalliklar orasida o'lim sabablari ko'rsatkichi bo'yicha pnevmoniya birinchi o'rinni va umumiy o'lim ko'rsatkichi sabablari bo'yicha oltinchi o'rinni egallaydi

Nafas a'zolari kasalliklari orasida katta muammolarga sabab bo'luvchi yana bir nechta kasalliklar bor. Bularga o'pkaning interstitsial kasalliklari, mukovissidoz, nafas yetishmovchiligi, o'pka sili va yuqori nafas a'zolari kasalliklari kiradi [2].

Keksa va qariyalarda o'pka-bronx tizimining o'zgarishlari O'pka-bronx tizimi keksa va qari kishilarda morfologik va funksional o'zgarishlarga uchraydi va «senil o'pka» belgilari rivojlanadi. Keksa yoshdagi bemorlarda quyidagi o'zgarishlar kasalliklarni klinikasiga ta'sir etadi: - mukotsiliar klirensning buzilishi; - Elastik tukimalarning kamayishi; - Surfaktant faolligining kamayishi; - Bronxlar utkazuvchanligini yomonlashuvi; - O'pkalarda kolikli havo mikdorining ko'payishi; - Alveolyar-kapillyar yuzaning kamayishi; - Gipoksiyaga fiziologik javobning kamayishi [3].

Qariyalarda o'pka to'qimasining elastikligi pasayadi ko'krak qafasi va diafragmani harakati kamayadi. Nafas olganda o'pka to'liq kengayish qobiliyati pasayadi. Xansirash paydo bo'ladi, bronxlarni o'tkazuvchanligi pasayadi va ularning drinaj funksiyasi buziladi, o'pkaning ventilyatsiyasi pasayishi natijasida pnevmaniyaning rivojlanishiga olib keladi.

Qariyalarda yo'tal refleksi kamayadi. Ularda alveolalar devorlarini sklerozi tufayli o'pkaning qon bilan to'lishi kamayadi, natijada gaz almashinuvi buziladi, havodagi kislorodni alveolalar devoir orqali qonga o'tishi kamayadi, qondan alveola orqali tashqariga uglekislota tashqariga chiqarishi ham qiyinlashib – gipoksiya hosil bo'ladi. Gipoksiya natijasida tez charchash, uyquchanlik, tez charchash, shuning uchun qariyalarga ko'proq ochiq havoda sayr qilish va sayr qilish gimnastikasi tavsiya qilinadi [4].

Xulosa: xulosa qilib shuni aytish mumkinki yoshi katta piru badavlat otahonu onahonlarimiz organizmlari yoshlarning organizimiga nisbatan nozik bo'lganligi sababli kasalliklarga tez chalinishi ma'lum shuning uchun yoshi kattalarimizni asrab avaylashimiz va har 6 oyda ko'rikka olib borishimiz ko'plab kasalliklarning oldini olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение.- Ташкент. Медицина,1990.

2. Соколов С.Я., Замотаев И.П. Домашний лечебник: методы лечения наиболее распространённых болезней лекарственными растениями и фитопрепаратами. Москва.1977.

3. Холматов Х.Х. Растительные лекарственные средства Абу Али ибн Сины. Ташкент Авиценна, 2003.

4. Холматов Х.Х., Харламов И.А., Мавлянкулова З.И. Лекарственные растения Центральной Азии. Ташкент издание мед. Литературы им.Абу Али ибн Сины.1998.